

**TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIDA PSIXOLOGIK MADANIYAT
SHAKLLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

Xosilov Misliddin Sharipovich

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada texnika yo'nalishi talabalari shaxsida psixologik madaniyatning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida talabalarning shaxsiy xususiyatlari, muloqot madaniyati, kasbiy motivatsiyasi, emotsional intellekti hamda ijtimoiy muhitning psixologik madaniyat rivojiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, texnik ta'lim jarayonida psixologik madaniyatni shakllantirishning dolzarbligi asoslanib, samarali pedagogik va psixologik omillar aniqlangan. Tadqiqot natijalari texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan ishlashda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *psixologik madaniyat, texnika yo'nalishi talabalari, ijtimoiy-psixologik determinantlar, shaxs rivoji, kasbiy tayyorgarlik, emotsional intellekt.*

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ
НАПРАВЛЕНИЙ**

Xosilov Misliddin Sharipovich

преподаватель Ташкентского института менеджмента и экономики

Аннотация: *В статье рассматриваются социально-психологические детерминанты формирования психологической культуры у студентов технических направлений. В ходе исследования анализируются личностные особенности студентов, культура общения, профессиональная мотивация, эмоциональный интеллект, а также влияние социальной среды на развитие психологической культуры. Обосновывается актуальность формирования психологической культуры в системе технического образования и выявляются эффективные психолого-педагогические факторы. Полученные результаты имеют практическую значимость в работе со студентами технических специальностей.*

Ключевые слова: *психологическая культура, студенты технических направлений, социально-психологические детерминанты, развитие личности, профессиональная подготовка, эмоциональный интеллект.*

**SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE FORMATION OF
PSYCHOLOGICAL CULTURE AMONG TECHNICAL STUDENTS**

Abstract: *This article examines the socio-psychological determinants of the formation of psychological culture among students of technical specialties. The study analyzes students' personal characteristics, communication culture, professional motivation, emotional intelligence, and the influence of the social environment on the development of psychological culture. The relevance of developing psychological culture in the technical education system is substantiated, and effective psychological and pedagogical factors are identified. The research findings have practical significance for educational work with technical students.*

Keywords: *psychological culture, technical students, socio-psychological determinants, personality development, professional training, emotional intelligence.*

KIRISH.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida jamiyatning barcha sohalarida yuqori malakali, raqobatbardosh va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar nafaqat chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga, balki yuksak psixologik madaniyatga ham ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy muhandis va texnik mutaxassislarning faoliyatida muloqot, jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarni samarali hal etish, stressga bardoshlilik va emotsional barqarorlik kabi psixologik omillar muhim o'rin tutadi.

Psixologik madaniyat shaxsning o'zini anglash, o'z hissiyotlarini boshqarish, ijtimoiy munosabatlarda moslashuvchanlik ko'rsatish hamda kasbiy faoliyat jarayonida samarali muloqotni yo'lga qo'ya olish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Texnika yo'nalishi talabalarida mazkur sifatlarning shakllanishi ularning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy muhit, ta'lim jarayoni, pedagogik ta'sirlar va ijtimoiy-psixologik omillar bilan uzviy bog'liqdir.

Hozirgi kunda texnik oliy ta'lim muassasalarida asosan kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratilib, talabalar psixologik madaniyatini rivojlantirish masalasi yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Shu bois, texnika yo'nalishi talabalarida psixologik madaniyat shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash va tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Mazkur tadqiqot texnika yo'nalishi talabalarida psixologik madaniyatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish hamda ta'lim jarayonida psixologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali yo'llarni belgilashga qaratilgan.

Texnika yo'nalishi talabalari orasida psixologik madaniyatning shakllanishi bugungi kunda dolzarbligini yo'qotmaydi. Xavfsizlik, aniqlik, samaradorlik va jamoa ishlash sifatini ta'minlash uchun psixologik madaniyat yetuk bo'lishi zarur. Global iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlarning tezlashuvi sharoitida kasb-hunar saviyasi, innovatsion fikrlash va ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun ijtimoiy-psixologik determinantlarning o'rganilishi yanada dolzarblashadi. Ilmiy ahamiyat: maqola talabalarining psixologik madaniyatini shakllantirish jarayonining nitq, munosabatlar, motivatsiya, xavfsizlik madaniyati kabi determinantlarini tushuntirishga yordam beradi. O'quv dasturlarini, kurslarni va pedagogik yondashuvlarni moslashtirish uchun tavsiyalar berish; talabalarining guruh ishiga bo'lgan qiziqishi, ishtiroki, xavfsiz hamkorlik muhitini kuchaytirish yo'llarini ko'rsatish.

Mutaxassislar uchun qimmatli ma'lumotlar: psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik, etika va xavfsizlik madaniyatining rivojlanishini qo'llab-quvatlash bo'yicha tavsiyalar.

Yosh mutaxassislarning ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarini rivojlantirish mamlakatning inson kapitalini oshirish orqali iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Davlat va ta'lim siyosatida psixologik madaniyatga oid nazariy va amaliy yo'riqnomalarni ishlab chiqish uchun ilmiy asoslarga ehtiyoj mavjud. Xavfsizlik, intizom va etikaga alohida e'tibor qaratish zarurligi ko'rsatiladi.

Texnika yo'nalishi talabalarining psixologik madaniyatini shakllantirishdagi ijtimoiy-psixologik determinantlarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqliklarini tushuntirish va amaliy tavsiyalar berishdan maqsad quyidagilar:

- determinantlar namingini aniqlash;
- talabalarining psixologik madaniyatini o'lchov vositalari orqali baholash; (3) ma'lumotlarni tahlil qilish;
- o'quv dasturlariga mos tavsiyalar ishlab chiqish;
- xavfsiz hamkorlik muhitini yaratish bo'yicha amaliy model taklif etish.

Tadqiqotimizda texnika yo'nalishi bo'yicha bakalavriat talabalari; yosh, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy holat bo'yicha representativ namunalar. Psixologik madaniyatning turli komponentlarini o'lchash uchun anketalar, intervyular, guruhli muhokamalar; motivatsiya, munosabatlar, xavfsizlik madaniyati kabi determinantlar uchun ijtimoiy-psixologik o'lchovlar. Korrelyatsion va regresiya analizlari yordamida determinantlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash; tematik tahlil orqali sifatli ma'lumotlarni tushunish. Etik nuqtai nazar: ishtirokchilar roziligi, maxfiylik, azaliy ma'lumotlarning himoyi saqlanishi, ilmiy aniqlik va adolatli tavsiyalar.

Shakllanishida muhim determinantlar sifatida munosabatlar madaniyati, motivatsiya, axloqiy-qadriyatlar, xavfsizlik madaniyati va jamoaviy ishga bo'lgan qo'llab-quvvatlash ko'riladi.

Bu determinantlar o'rtasidagi kuchli va zaif o'zaro bog'liqliklar ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash bo'yicha yo'riqnomalarni talab qiladi.

1. Ma'lumotlar o'quv dasturlarini moslashtirish, ko'nikmalarni rivojlantirish va xavfsiz hamkorlik muhitini yaratish yo'llarini ko'rsatadi.

2. Darslik va o'quv dasturlarida psixologik madaniyatni rag'batlantiruvchi modullarni joriy etish.

3. Guruh ishlari, tez-tez fikr almashish, xavfsizlik bo'yicha treninglar uchun maxsus rejalar ishlab chiqish.

4. Baholash tizimini dinamik ravishda o'zgartirib, muddatli monitoring va yondoshuvni joriy etish.

Pedagoglar, psixologlar va kadrlar bo'limlari uchun xavfsizlik, etik qoidalar va madaniyat bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish.

Bu maqola texnika yo'nalishi talabalarining psixologik madaniyatini shakllantirishdagi ijtimoiy-psixologik determinantlarning ahamiyatini ko'rsatadi, ularning samaradorligini aniqlaydi va ta'lim jarayonini yanada samarali, xavfsiz va jamiyatga foydali qilish uchun amaliy tavsiyalar beradi. Kelgusida empirik ma'lumotlar kengaytirilgan ko'rsatkichlar bilan tasdiqlanganda, o'zlashtirishning umumiy mezonlarini yanada aniqroq belgilash mumkin bo'ladi.

L.Vigotskiy qarashlarida madaniyatli-binoqli yondoshuv inson rivojlanishi ijtimoiy– madaniy kontekstda til, muloqot va ketma-ket ijtimoiy faoliyat o'zlashtirish jarayonida markaziy o'rin tutadi. Psixologik madaniyatga ta'sirida esa maktab-o'quv muhitidagi aksioma-til va guruh muloqoti orqali talabalarning kognitiv va emotsional ko'nikmalarining shakllanishi, konfliktlarning yechimi va jamoaviy ishda muhitning muvozanatga keltirilishi. Texnika yo'nalishi kontekstida guruh ishlari, guruh dinamikasi, tajribaviy o'rganish, nazariy-nuqtai nazardan xavfsiz hamkorlik muhitini yaratish. Texnika talabalari orasidagi ijtimoiy bog'lanishlar, ishlab chiqish jarayonidagi jamoaviy kooperatsiya va xavfsizlik madaniyatini tushuntirish[1].

Kurt Levinning asosiy qarashlarida maydon nazariyasi, guruh dinamikasi, ijtimoiy tizimlarda o'zgarish jarayonlari (universal fenomenga o'zgarishlar uchrashuvlarining yondashuvi). Psixologik madaniyatga ta'siri guruh ichidagi rol-muvozanat, normalar, ijtimoiy bosimlar va o'zaro ta'sirlarning amaliy ko'rinishlari[2].


A.Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasi, o'zini boshqarish, model rolining ta'siri, ta'sirchanlik va motivatsiya. Psixologik madaniyatga ta'sirida ijtimoiy ta'sirlar orqali davranishlar o'zlashtirilishi, “modellash” yo'li bilan ijobiy ko'nikmalar ning shakllanishi. Bu yo'nalish xavfsizlik madaniyati, axloqiy qadriyatlar, me'yoriy-

huquqiy me'yorlar. Talabalarda xavfsizlik, intizom va professional etikani rivojlantirish uchun model va motivatsiya omillari[3].

E.Deci va R.Ryan qarashlarida o'zini belgilanish, autonomia, kompetensiya, aloqalilik kabi ehtiyojlar motivatsiyani boshqaradi. Psixologik madaniyatga ta'siri shundaki ichki motivatsiya va tashqi bosimlarning balansini anglash, o'quv jarayonida mustaqillik va qo'llab-quvvatlash muhiti. Texnika yo'nalishi kontekstida talabalarning mustaqil fikrlashi, xavfsiz hamkorlik, etika va professional madaniyat[4].

C.Dvek - qiyinchiliklar, xatolarni o'rganish imkoniyati sifatida qabul qilish psixologik madaniyatga ta'siri xujjatlar va topshiriqlarda muvaffaqiyatsizliklar motivatsiya manbai sifatida ko'riladi; shaxsiy va professional rivojlanish uchun zakovatli qiyinchiliklarning ijobiy yo'naltiruvchiligi[5]. Texnika yo'nalishi kontekstida: turli bosqichlardagi talabalar uchun tahlilchi yondashuvlar, xatolardan o'rganishni rag'batlantirish. Psixologik madaniyatga ta'siri: amaliy o'qitish va refleksiya orqali talabalarning o'zaro munosabatlarini, maslahatlashuvini, o'z-o'zini baholashini rivojlantirish. Texnika yo'nalishi kontekstida: laboratoriya ishlarida xavfsizlikni mustahkamlash, amaliy mashg'ulotlar bilan nazariy bilimlarni bog'lash.

Texnika yo'nalishi talabalarida psixologik madaniyat darajalari (n=74)



1-rasm. "Shaxsning psixologik madaniyati darajasini aniqlash so'rovnoma"
(muallif: V.N. Kolyadina modifikatsiyasi asosida)

Mazkur so'rovnoma texnika yo'nalishi talabalarida psixologik madaniyat shakllanish darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u shaxsning ijtimoiy-psixologik faoliyatida muhim bo'lgan besh asosiy komponentni qamrab oladi. Metodika 30 ta savoldan iborat bo'lib, har bir komponentni ochib beruvchi 6 tadan savolni o'z ichiga oladi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Mazkur komponent talabaning o'z shaxsiy xususiyatlari, kuchli va zaif tomonlari, qiziqishlari hamda ichki imkoniyatlarini anglash darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Savollar orqali talabaning o'z xatti-harakatlarini baholay olish qobiliyati, o'ziga nisbatan tanqidiy munosabati va shaxsiy rivojlanishga bo'lgan intilishi o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, texnika yo'nalishi talabalarida o'zini anglash darajasi asosan o'rtacha shakllangan bo'lib, bu ularning kasbiy rivojlanish jarayonida o'z ustida ishlashga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Mazkur komponent talabalararo va talaba–o'qituvchi munosabatlarida samarali muloqot o'rnatish ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan. Savollar fikrni aniq ifodalash, boshqalarni tinglash, nizoli vaziyatlarda to'g'ri muloqot qilish va hurmat saqlash kabi jihatlarni qamrab oladi. Sifat tahlili natijalariga ko'ra, aksariyat talabalar muloqotda asosiy qoidalariga amal qiladilar, biroq murakkab ijtimoiy vaziyatlarda kommunikativ qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin.

Mazkur komponent talabalarining stressli vaziyatlarda o'z hissiyotlarini boshqarish, salbiy emotsiyalarni nazorat qilish va ijobiy psixologik holatni saqlab qolish qobiliyatini aniqlaydi. Savollar orqali talabalar hayajon, jahldorlik yoki tushkunlik holatlarida qanday munosabat bildirishi o'rganiladi. Sifat tahlili shuni ko'rsatadiki, texnika yo'nalishi talabalarida emotsional boshqaruv ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo'lib, bu ularning o'quv yuklamasi va intellektual zo'riqishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mazkur komponent talabaning guruhda o'z o'rnini topishi, jamoaviy faoliyatga moslashuvi va ijtimoiy muhitga mos ravishda xatti-harakatlarini o'zgartira olish qobiliyatini baholaydi. Savollar yangi vaziyatlarga moslashish, jamoa bilan ishlash va ijtimoiy rollarni qabul qilish masalalarini qamrab oladi. Natijalarga ko'ra, talabalar orasida ijtimoiy moslashuv darajasi asosan o'rtacha bo'lib, bu texnika yo'nalishidagi jamoaviy loyihalar va amaliy mashg'ulotlar orqali rivojlantirilishi mumkin.

Mazkur komponent talabaning o'z faoliyati natijalarini tahlil qila olish, xatolardan xulosa chiqarish va qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikni his etish darajasini aniqlaydi. Savollar talabaning o'z oldiga maqsad qo'yishi, vazifalarni o'z vaqtida bajarishi va o'z-o'zini baholash qobiliyatini yoritadi. Sifat tahlili natijalariga ko'ra, yuqori natija ko'rsatgan talabalar o'zini rivojlantirishga moyil va ijtimoiy yetuk shaxs sifatida shakllanib borayotganligi aniqlanadi.

30 savolli mazkur metodika texnika yo'nalishi talabalarida psixologik madaniyatning asosiy tarkibiy qismlarini kompleks tarzda baholash imkonini beradi. Sifat tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda psixologik madaniyat komponentlari notekis rivojlangan bo'lib, ayniqsa emotsional boshqaruv va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Metodika natijalari psixologik treninglar va tarbiyaviy dasturlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, texnika yo'nalishi talabalarida psixologik madaniyatning shakllanish darajasi asosan o'rtacha darajada namoyon bo'lmoqda. Talabalarda o'zini anglash, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuv komponentlari nisbatan barqaror rivojlangan bo'lsa-da, emotsional boshqaruv hamda mas'uliyat va refleksiya komponentlarida muayyan qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu holat texnika yo'nalishiga xos bo'lgan yuqori intellektual yuklama, stressli o'quv jarayoni va amaliy faoliyat bilan bog'liq omillar ta'sirida yuzaga kelmoqda.

XULOSA.

Tadqiqot natijalari psixologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida ta'lim muhitining, guruh ichidagi ijtimoiy munosabatlarning va maqsadli psixologik mashg'ulotlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, texnika yo'nalishi talabalarida psixologik madaniyatni shakllantirish uchun emotsional o'zini boshqarish, refleksiya va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga qaratilgan trening va amaliy mashg'ulotlarni tizimli ravishda tashkil etish zarur.

Mazkur metodika asosida olingan natijalar psixologik madaniyatni shakllantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarni aniqlash hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1982.
2. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Смысл; Эксмо, 2005.
3. Левин К. Теория поля в социальных науках. – М.: Академический проект, 2000.
4. Левин К. Разрешение социальных конфликтов. – М.: Смысл, 2001.
5. Бандура А. Теория социального научения. – СПб.: Евразия, 2000.
6. Бандура А. Самоэффективность: как повысить уверенность в себе. – М.: Альпина Пабlishер, 2016.
7. Деси Э., Райан Р. Внутренняя мотивация и самоопределение в поведении человека. – М.: Смысл, 2008.
8. Деси Э., Райан Р. Теория самоопределения: основные концепции и практическое применение. – СПб.: Питер, 2012.
9. Двек К. Гибкое сознание. Новый взгляд на психологию развития взрослых и детей. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2017.
10. Двек К. Самоубеждения: их роль в мотивации, личности и развитии. – СПб.: Питер, 2007.
11. Makhmudov Sodir Yusufalievich (2023). THE RELEVANCE OF TEACHING THE SUBJECT "SAFETY OF LIFE ACTIVITY" IN THE

CONDITIONS OF INNOVATIVE EDUCATION. Science and innovation, 2 (B4), 666-670. doi: 10.5281/zenodo.7880159

12. X. Domuladjanov, S. Yu. Maxmudov, & Yu. M. Xolmirzayev. (2022). AVTOTRANSPORTDAN ATMOSFERANING IFLOSLANISHI. Conference Zone, 98–118. Retrieved from <https://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/837>

13. Abilovich, T. H., Sotivoldievna, M. G., Raxnamoevich, D. M., & Yusufalievich, M. S. (2021). ANALYSIS OF INNOVATIVE TEACHING METHODS IN CONTINUING PROFESSIONAL EDUCATION. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(10).

14 Махмудов, С. Ю., Дадакузиев, М. Р., & Домуладжанов, И. Х. (2019). Экологическая безопасность.